

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TURAXONOV SHOXRUX ODILJONOVICH

**ANOR PO‘STLOG‘I ASOSIDA YANGI TOVORLAR OLIH VA
ULARNING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Turaxonov Shoxrux Odiljonovich

Anor po'stlog'i asosida yangi tovarlar olish va ularning xalq tabobatidagi ahamiyati..... 3

Турахонов Шохрух Одилжонович

Получение новых продуктов на основе кожуры граната и их значение в народной медицине..... 21

Turakhonov Shokhrukh Odiljonovich

Obtaining new products based on pomegranate peel and their importance in folk medicine 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TURAXONOV SHOXRUX ODILJONOVICH

**ANOR PO'STLOG'I ASOSIDA YANGI TOVORLAR OLISH VA
ULARNING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41 - Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/K539 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor
[Isaqov Xayatulla]
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Shavkat Vohidovich
kimyo fanlari doktori, professor
Mo'minova Go'yoxon Alidjanovna
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "14" 12 soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: agsu_info@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "6" 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil "6" 12 daqi 45 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Sh.M.Kirgizov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M.Xojimatov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda inson teri kasalliklarini davolash va oldini olishda mahalliy xom-ashyolar asosida samarali ta'sir qiluvchi dorivor preparatlarni yaratishga, ularni organizmga ta'sirini va farmakologik xususiyatlarini aniqlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, oziq-ovqat qo'shilmalarining biologik faolligini namoyon qiluvchi tabiiy birikmalar flavonoidlar, vitaminlar, makro-mikroelementlar, aminokislotalar, oqsillar kabi bir qancha guruh birikmalarini ajratib olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham, tarkibida biologik faol moddalarga boy bo'lgan tabiiy manbalar asosida yangi turdagi tabiiy shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash hamda sinflash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo'jalik ekinlari va bog'dorchilikda yuqori hosil olish imkonini beruvchi, o'simliklarni o'sishi va rivojlanishini tezlatuvchi biostimulyatorlar olish, shuningdek, dorivor o'simliklar asosida yangi turdagi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tarkibida o'simliklarni kompleks rivojlantiruvchi birikmalar saqlagan biostimulyatorlar olish, tarkibida teri kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar asosida biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun ham, mahalliy xomashyolar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun yangi biostimulyatorlar sintez qilish, hamda o'simliklar asosida yangi turdagi dorivor oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini zamonaviy usullar yordamida aniqlash hamda TIF TN bo'yicha sinflash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda mahalliy o'simliklarning urug'i, poyasi, ildizi kabi qismlari asosida teri kasalliklari, jumladan, psoriaz, vitiligo kabi kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarini o'sishi va rivojlanishini tezlatuvchi biostimulyatorlar olish bo'yicha muayyan natijalariga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tarkibida tabiiy antibiotiklar, biologik faol birikmalar saqlagan anor mevasi va meva po'sti asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari aniqlash hamda ularga TIF TN bo'yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, shuningdek, PF-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni va

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2018 yil 12 oktyabrda PQ-3968 - son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va farmonlarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Punica granatum* (anor) o‘simligining kimyoviy tarkibi, tarkibidagi biologik faol moddalarni ajratib olish, xossalarni aniqlash bo‘yicha chet ellik olimlardan Eronlik olimlar Fadaviy A., Barzegar M., Azizi M.H., Bayat M. *Punica granatum* (anor) o‘n navining fizik-kimyoviy tarkibini, AQSh olimlari Lansky E.P., Newman R.A. yallig‘lanish va saratonni oldini olish va davolash uchun xususiyatlarini, ispaniyalik olimlar Viuda-Martos M., Fernandes-Lopez J., Axtar S., Bera M.B., Chopra H.K. anor qobig‘i va qobig‘i ekstraktlari po‘stlog‘idan fenolik birikmalarni ultratovush yordamida ekstraksiya qilish jarayonining o‘zgaruvchilarini optimallashtirishni tadqiq etganlar. O‘zbek olimlaridan k.f.d., professor I.R.Asqarov, tex.f.d., professor X.Isaqov anor po‘stlog‘i chiqindisidan biologik faol moddalar ajratib olish, X.Sh.Yunusxodjayeva, N.Sh.Zulyarova, F.X.Eshmatov, U.A.Suyundikov Anor mevasi po‘stlog‘idan oshlovchi moddalar olish va ularni sanoat miqyosida qo‘llanilishini tahlil qilishgan.

Mazkur tadqiqotda xalq tabobatida qo‘lanilayotgan anor po‘stlog‘i tarkibidagi gall kislotasi asosida olingan ko‘plab efirlari: metilgallat, etilgallat, propilgallat, oktilgallat efirlarining hossalari o‘rganilib, ularning inson salomatligiga ta‘siri va anor po‘stlog‘i asosida olingan gall kislotasining mochevina, tiomochevina xosilalari asosida olingan birikmalarni sintez qilish, reaksiya mexanizmi va olingan moddalarni tarkibi, tuzilishi, biologik faolligini tahlil qilish va kimyoviy tarkibi asosida sinflash, ularga TIF TN qoidalariga asosan tegishli yangi tovar kodlari ajratish va tavsiya etilgan tovar kodlarini amaliyotga joriy etish kabi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xalq xo‘jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi anor po‘stlog‘i asosida biologik faol moddalarni ajratib olish, ularning ayrim hosilalarini sintez qilish, ular asosida qishloq xo‘jaligi va xalq tabobatida qo‘llash uchun yangi tovarlar olish hamda ularni sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Chiqindi sifatidagi anor po‘stlog‘i asosida yangi tovarlar olishning eng maqbul usullarini aniqlash;

anor po'stlog'i va urug'i tarkibidagi vitaminlar, oqsillar, makro-mikroelementlar, uglevodlar, miqdorini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

anor po'stlog'i tarkibidan ajratib olingan gall kislotasi bilan mochevina va tiomochevina hosilalarining efirlarini sintez qilish usullari ishlab chiqish;

olingan yangi biologik faol gall kislotasi asosidagi birikmalarni laboratoriya va dala amaliyotida sinovlardan o'tkazish;

gall kislotasi asosida olingan biologik faol moddalarni kimyoviy tarkibiga ko'ra tasniflash va ularga TIF TN bo'yicha tegishli tovar kodlari ishlab chiqish;

anor po'stlog'i asosida teri kasalliklarini davolashda foydalaniladigan surtma ishlab chiqish;

yangi ishlab chiqilgan surtma(maz)ni klinik tadqiqotlarda sinovdan o'tkazish;

anor po'stlog'i asosida yangi maz' uchun TIF TN bo'yicha tovar kodini ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida xalq tabobatida qo'llanilayotgan anor po'stlog'i, uning tarkibidagi gall kislotasi bilan mochevina, hosilalari asosida olingan birikmalari, xalq tabobati usulida psoriaz teri kasalligini davolash uchun surtma malhami olingan.

Tadqiqotning predmetini xalq tabobatida qo'llanilayotgan anor meva po'stlog'i asosida psoriaz teri kasalliklari davolash hamda anor po'sti, urug'i va ularning tarkibidagi gall kislotasi bilan metilolmochevina, hosilalarini olish va biologik faolligini aniqlash, olingan birikmalarni kimyoviy tarkibiga ko'ra tegishli sinflarga ajratish hamda TIF TN bo'yicha tovar ko'rlarni ishlab chiqish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida kimyoviy sintezi va analiz, yupqa qatlamli va ustunli xromatografiya, IQ spektroskopiya kimyoviy moddalarning molekular strukturasi aniqlash biologik faolligini o'rganish, TIF TN bo'yicha sinflash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

anor po'stlog'i va urug'i tarkibidagi vitaminlar, oqsillar, makro-mikroelementlar, uglevodlar miqdorlari zamonaviy fizik-kimyoviy analiz usullari yordamida aniqlangan;

anor po'stlog'i tarkibida ko'p miqdorda bo'lgan va ajratib olingan gall kislotasining efirlarini sintez qilish usullari ishlab chiqilgan;

sintez qilingan yangi biologik faol moddalarni laboratoriya va dala amaliyotida sinovlardan o'tkazilganda ularning ayrimlari chigitni unishi va paxta hosildorligini oshiruvchi biostimulyator ekanligi aniqlangan;

gall kislotasi asosida olingan yangi biostimulyator kimyoviy tarkibidagi o'rinbosarlarning turiga ko'ra sinflandi va ularga TIF TN bo'yicha tovar kodlari ishlab chiqilgan;

klinik tadqiqotlar natijalarida "ASTUR" nomli yangi surtmaning psoriaz teri kasalligini davolash xususiyatiga ega, samarali vosita ekanligi isbotlangan;

anor po'stlog'i asosida ishlab chiqilgan "ASTUR" nomli surtmaga TIF TN qoidalari asosida yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

anor meva po'stlog'i asosida ayrim teri kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan "ASTUR" nomli yangi surtma ishlab chiqilgan;

anor po'sti tarkibidagi gall kislotasi asosida o'simliklarni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligini oshiruvchi yangi biostimulyator ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan moddalarning tozalilik darajasi, ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishi, kimyoviy analiz, IQ-spektroskopik, olinga natijalarning matematik qayta ishlanganligi, olingan moddalarning biostimulyatorlik va farmakologik xossalarga ega ekanligini yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan tasdiqlanganligi, anor meva po'sti asosida olingan malhamning teri kasalliklariga ijobiy ta'siri, olingan natijalarning ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati anor po'stlog'ining kimyoviy tarkibini, anor po'stlog'idan ajratib olingan gall kislotasi asosida sintez qilingan yangi biostimulyator va anor po'stlog'i asosida teri kasalliklarini davolash uchun ishlab chiqilgan surtmaning kimyoviy tarkibini hamda biologik faolligini zamonaviy usullar yordamida aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati anor meva po'stlog'i asosida xalq tabobatida qo'llaniladigan yangi "ASTUR" nomli tabiiy va shifobaxsh surtma ishlab chiqilganligi, anor meva po'stlog'idan ajratib olingan gall kislotasi asosida o'simliklarni kompleks rivojlanishini va hosildorligini oshiruvchi yangi biostimulyator sintez qilinganligi, hamda ushbu tovarlar uchun taashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi asosida yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Anor po'stlog'i asosida yangi tovarlar olish va ularning xalq tabobatidagi ahamiyati bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

anor po'stlog'i asosida ishlab chiqilgan ASTUR (AntiPsoriaz-20) surtma malhamini "Oltin Vodiy Tabiati MCHJ" da ishlab chiqarish uchun tashkilot standarti (Ts 303271760-03:2023) va texnologik yo'riqnoma (TY 558372472-01:2024) tasdiqlangan. (O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 25.08.2023 yildagi 31-8/1320-sonli ma'lumotnomasi, shu qo'mitaning 28.06.2024 yildagi 26-116-563-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot Bosh boshqarmasining 2024yil 9 oktabrda № 017840-sonli xulosasi). Natijada, anor chiqindisi asosida psoriaz teri kasalligini davolovchi malham ishlab chiqarish imkonini bergan.

Anor po'stlog'ining parafindagi ekstrakti asosida psoriaz va boshqa teri kasalliklarini davolash maqsadida ishlab chiqilgan "ASTUR" (Antipsoriaz-20) nomli surtma malham, hamda gall kislotasi asosida sintez qilingan biostimulyatorlar tovar sifatida sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: "meva po'stloqlarining organik erituvchilaridagi ekstrakti" uchun – 2106 90 980 6, "gall kislotasining monometiloltimechevinali efiri" uchun

– 2918290001, “gall kislotasining monometilolmochevinali efiri” uchun – 2918290002 yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilib, bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2022 yil 22 yanvardagi 02/16-0029-son, 2023 yil 30 maydagi 17/05-23-0370-son ma‘lumotnomalari, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 20 apreldagi 07/35-04/2473-son ma‘lumotnomasi). Natijada, anor po‘stlog‘i asosida ishlab chiqilgan surtmalar va gall kislotasining ayrim efirlarini kimyoviy tarkibi bo‘yicha sinflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, 5 ta xalqaro 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 40 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, shundan 10 ta maqola respublika va 5 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Xalq tabobatida qo‘llanilayotgan anor po‘stlog‘ining kimyoviy tarkibi va undan olingan gal kislotasi asosida olingan moddalar (adabiyotlar tahlili)**” deb nomlangan **birinchi bobida** dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada Anor (*Punica granatum* L.) o‘simlik turkumining botanik tavsifi, o‘simlikning tarqalish areasi va tarkibiy qismlarining kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga mamlakatimizda xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotning o‘zaro integratsiyalashuvi to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan. Anor, anor meva po‘stining shifobaxsh xususiyati va ulardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarini zamonaviy tibbiyot va halq tabobatidagi ahamiyati to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Anor meva po‘stlog‘ining tarkibiy elementlari. Gall kislotasining monometilol-mochevina va monometiloltiomochevina) hosilalari birikmasi sintezi va ularni sinflash (olingan natijalar muhokamasi)**” deb nomlangan ikkinchi bobida Anorning (qayin va tuyatish) navlarining meva po‘stlog‘i tarkibidagi makro va mikroelementlar, uglevodlar, aminokislotalar oqsillar yog‘dorligi, vitaminlar, flavanoidlar, gall kislotasini, antioksidantlik,

pestitsidlik va og'ir metallarni aniqlash, Anor po'stlog'i asosida tayyorlangan "ASTUR" (AntiPsoriaz-20) mazining klinik tekshiruv natijalari, Gall kislotasining metilolmochevina, metiloltiomochevina va ularning hosilalari bilan birikmalari sintezi, Sintez qilingan birikmalarni biologik faolligini laboratoriya sharoitida o'rganish, Laboratoriya sharoitida gall kislotasining mochevina va tiomochevina hosilalari asosida olingan birikmalarning chigit unishiga ta'siri O'zbekiston PSUEAITI Farg'ona filiali paxta maydonida o'tkazilgan tajriba natijalari ko'rsatib o'tilgan.

Anorning (qayin va tuyatish) navlarining meva po'stlog'i tarkibidagi makro-mikroelementlar miqdorini aniqlash. Anorning meva po'stlog'idagi makro- va mikroelementlari miqdori induktiv bog'langan plazmali mass-spektrometriya (IBP-MS) metodi yordamida aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra anor meva o'simligining po'sti tarkibida kaliy (4576.83 mg/kg) makroelementi eng ko'p miqdorda mavjudligi aniqlandi. Kalsiy (1918,14 mg/kg) makroelementi ham ko'p miqdorda mavjud. Mikroelementlar orasida qon xosil qilishda ishtirok etuvchi temir (Fe 0,898 mg/kg) ko'p miqdorda uchrashligi tasdiqlandi. Shuningdek bu element inson organizmida ko'plab ferment va oqsillarning tarkibiga kiradi, gemogloblin tarkibiga kirib kislorodni hujayra va to'qimalarga etkazishda ishtirok etadi. Og'ir metallar belgilangan meyyordan ozligi aniqlandi. Anorning Qayin navining meva po'stlog'idagi makro va mikroelementlar Tuyatish navi tarkibidagi makro va mikroelementlaridan 1,1-1,5 barobar ko'pligi aniqlandi.

Shuningdek, anor po'stlog'i tarkibida o'ziga xos hususiyatlardan Ti, V, Cr, Mn, Cu, Zn, Sn, Ba metallarining sezilarli darajada mavjudligi bu mahsulotning biologik faolligini belgilashda rol o'ynaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Qayin anor po'stlog'ida bu mikroelementlar Tuyatish naviga qaraganda bir muncha ko'proq. Shu bilan birgalikda Nb, Cd, In, Cs, W, Re, Hg, Bi kabi og'ir metallarning mavjud emasligi tajribalarda isbotlandi.

Anor (tuyatish va qayin) navlarining meva po'stlog'i tarkibidagi uglevodlar miqdorini aniqlash. O'zbekistonda yetishtirilayotgan tuyatish anor navining meva po'stlog'i tarkibidagi monosaxaridlar miqdorini aniqlash yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodi yordamida amalga oshirildi. Aniqlangan monosaxaridlarning miqdorlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tuyatish anor meva po'sti tarkibidagi aniqlangan uglevodlarning miqdori

№	Uglevodlar	Miqdor, %	
		Tuyatish	Qayin
1	Fruktoza	15,71	17.58
2	Glyukoza	16,18	15.74
3	Saxaroza	0,07	0.00
4	Maltoza	0,24	0.17

Tuyatish anor navining meva po'stlog'i ekstrakti qismidagi uglevodlar ichida eng ko'p uchraydigani glyukoza ekanligi aniqlandi. Qayin anor navining meva po'stlog' qismidagi uglevodlar tuyatish meva po'stlog'idan farqli ravishda fruktoza miqdori ko'proq uchrashi aniqlandi.

Anorning (tuyatish va qayin) navlarining meva po'stlog'i ekstrakti tarkibidagi aminokislotalar miqdorini aniqlash. Qayin navli anor meva po'sti tarkibida

almashinadigan aminokislotalardan eng ko'p miqdorda glutamin (3.193 mg/kg) va prolin (1.456 mg/kg) almashinmaydigan aminokislotalardan esa triptofan (4.39 mg/kg), fenilalanin (3.5 mg/kg) mavjudligi aniqlandi. 1 kg aminokislotalarning umumiy miqdori 18.376 mg ni tashkil etdi. Olingan natijalarda Tuyatish anor meva po'stlog'i tarkibidagi aminokislotalar umumiy miqdori quyidagi tartibda joylashadi. Anor meva po'sti kukuni tarkibidagi almashinadigan aminokislotalar (mg) miqdorlari quyidagi tartibda kamayib borishi kuzatildi: Glu(1,972) > Pro(1,595) > Asp (0.769) > Tir (0,504) > Asp (0.415) > Glu kislota (0.252) > Gli (0.135) > Sis (0,121) > Ser (0,098) > Ala (0.083), almashinmaydigan aminokislotalar mg/gr miqdorlari esa: Fen (2.329) Trip (1.023) > Gis (0.912) > Val (0.604) > Met (0.603) > Tre (0.245) > Arg (0.248) > Izo (0.196) > Ley (0.0793) > Liz (0.031). Anor meva posti kukinidan olingan namunada eng kop miqdorda fenilalan, glutamin, prolin va triptofan aminokislotalari uchraydi.

Anorning (qayin va tuyatish) navlarining meva po'stlog'i va urug'i tarkibidagi oqsillar miqdorini aniqlash Kel'dal umumiy protein miqdorini aniqlash usuli bo'yicha olib borildi. Qayin anor meva po'stlog'i ekstraktlari tarkibidagi umumiy oqsillar miqdori 3,47 %, Tuyatish anor meva po'sti tarkibida 3,652% ga bo'lsa, urug'i tarkibida 10,434 % ekanligi aniqlandi.

Louri usulida suvda eriydigan oqsillar miqdori Qayin anor meva po'sti tarkibida 0,96 %, Tuyatish anor meva po'sti tarkibida esa 0,89 % ekanligi aniqlandi.

Anor (qayin va tuyatish) navlarining meva po'stlog'i yog'dorligini aniqlash. Anor po'stlog'i namunalariidagi yog'dorlikni aniqlash Sokslet usulida amalga oshirildi. Olingan namunalarda Tuyatish anor meva po'sti yog'dorligi 0,7 % ni, Qayin anorda esa bu ko'rsatkich 0,4 % ni tashkil etdi.

Qayin va Tuyatish anor navlarining meva po'stlog'i ekstrakti tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash. Anor meva po'stlog'idagi vitaminlarini aniqlashda YuSSX metodidan foydalanildi. Quyidagi 2-jadvalda olingan natijalar keltirilgan.

2-jadval. Tuyatish va Qayin anor navining meva po'sti ekstrakti tarkibidagi vitaminlar miqdori

№	Vitaminlar	Miqdor, mg/kg	
		Tuyatish anor navi	Qayin anor navi
1	B ₁	0,65	0,70
2	B ₂	12,05	13,73
3	B ₆	2,11	2,92
4	B ₉	14,81	16,66
5	PP	0,46	0,44
6	C	9,31	12,18

Tuyatish anor navi po'stlog'i tarkibidagi B₉ va B₂ vitaminlarining miqdorlari Qayin anor navi po'stidagi miqdoridan kam ekanligi aniqlandi.

Tuyatish va Qayin anor meva po'stlog'i tarkibidagi flavanoidlar miqdorini aniqlash. Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi bo'lgan anor po'stlog'idan xalq tabobatida turli teri kasalliklarini davolashda qo'llaniluvchi vositalar olish bo'lganligi uchun po'stlog tarkibida flavonoidlar miqdorini aniqlashda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodidan foydalanildi.

3-jadval. Tuyatish anor meva po'stlog'i tarkibidagi flavanoidlarning aniqlangan miqdori

№	Flavanoidlar	Miqdor, mg/kg
---	--------------	---------------

		Tuyatish anor po'sti	Qayin anor po'sti
1	Lyutionin	4.15	6.03
2	Rutin	137.1	99,41
3	Salitsil kislota	0,78	0,78
4	Kversetin	2.03	2,09
	Apigenin	26.4	10,15

Tuyatish anor meva po'sti tarkibidagi flavonoidlarning eng ko'p miqdori rutinga, undan deyarli 4 barobar oz apigeninga hamda lyuteolin va kversitinga to'g'ri keldi. Qayin anor meva po'sti tarkibidagi flavonoidlarning eng ko'p miqdori apigeninga hamda lyuteolin, rutinga to'g'ri kelib, kversitin aniqlanmadi. Anor po'stlog'i tarkibidagi aniqlangan flavonoidlarning vazifalaridan biri antioksidant xususiyati bo'lib miya, yurak va boshqa to'qimalarni ishemiya-reperfuzya shikastlanishi, toksinlar va oksidlovchi stressga olib keladigan boshqa omillardan himoya qiladi.

Qayin va Tuyatish anor meva po'stlog'i tarkibidagi gall kislotasining miqdorini aniqlash. Anor navlarining meva po'sti tarkibidagi gall kislotasi miqdorini xromatografik aniqlashlar uning ko'p miqdorda ekanligini ko'rsatdi (4-jadval).

4-jadval. Tuyatish anor meva po'stlog'i ekstraktidagi Gall kislotasi gramm miqdori.

№	Namuna	Miqdor, mg/g
1	Tuyatish anor meva po'sti	173,71
2	Qayin anor meva po'sti	122,12

Anor meva po'sti, urug'i, meva donining uyasi, uyalar pardasi ekstraktlarining antioksidantlik xossasini aniqlash. Anor meva po'sti meva donining uyasi, uyalar pardasi va urug'larining suvli ekstraktlarining antioksidantlik faolliklari spektrofotometrik usulda o'rganildi. Antioksidantlikni aniqlash adrenalinning ishqoriy muhitdagi (pH = 10.65) autoksidantlanishiga asoslangan bo'lib, aniqlashlar EMC-30PC-UV spektrofotometrda bajarildi. Olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval. Anorning tuyatish va qayin navining meva po'sti, urug'i, meva donining uyasi, uyalar pardasi ekstraktlarining antioksidantlik faolligi (AA%) ko'rsatkichlari.

№	Namuna	Optik zichlik			AA%	
		Nazorat (D ₁)	Tajriba (D ₂)		Tuyatish	Qayin
			Tuyatish	Qayin		
1	Meva po'stlog'i	0,1170	0,0320	0,0400	72,6	65,8
2	Meva urug'i		0,0480	0,0350	58,9	54,08
3	Meva donining uyasi		0,0032	0,0017	97,2	98,5
4	Meva uyasi pardasi		0,0010	0,0005	99,1	99,5

Anorning barcha navlarida meva uyasi pardasining antioksidantlik faolligi boshqa qismlardan yuqori ekanligi ko'rinadi. Keyingi o'rinlarda meva donini uyasi, meva po'stlog'i va urug'i turadi. Shuningdek takidlash joizki, anor meva po'stlog'ining AA % faolligi boshqa o'rganilgan qismlardan qolishmaydi. Anor mevasi chiqindilaridan uning po'stlog'i massasi katta bo'lgani uchun bu chiqindini shifobaxsh oziq-ovqat mahsulot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tekshiriluvchi namunalarning antioksidantlik xossalarini solishtirish uchun etalon sifatida farmasevtika va tibbiyotda ishlatiladigan gliklazid (C₁₅H₂₁N₃O₃S), hamda oziq-ovqat sanoatida BFQ sifatida ishlatiladigan kversetin (C₁₅H₁₀O₇)

moddalaridan foydalanildi. Kversetin 1 mg/kg eritmasining antioksidant xususiyati 37,4% va gliklazid esa 10 % bo‘lib, anor navlari meva po‘sti, urug‘i, meva donining uyasi, uyalar pardasining antioksidantlik xususiyati yuqoriroq ekanligi ko‘rinadi.

Anor navlarining meva po‘sti asosida tayyorlangan ekstraktlari tarkibidagi og‘ir metallar va pestitsidlar miqdorini aniqlash Davlat standartlari GOST: 26933-86; 26932-86;26930-86;26927-86; MU012-3/0010-03; asosida Andijon viloyati Jalaquduq tumani SEO va JSX bo‘limi sanitariya gigieniya laboratoriyasida tekshiruvdan o‘tkazildi. Sinov usullari uchun meyoriy sharoitlar: harorat 22 °C, nisbiy namlik 66 %. Og‘ir metallar polyagrafik metodida, pestitsidlar gaz xromatografiyasi usulida aniqlandi (6-7 jadvallar).

6-jadval. Tuyatish navi meva po‘sti asosida tayyorlangan ekstrakt tarkibidagi og‘ir metallar miqdori, mg/kg

Og‘ir metallar	Meyoriy hujjat bo‘yicha eng ko‘p miqdor	Aniqlangan miqdor	Ko‘rsatkichning meyoriy hujjat talablariga mosligi
Kadmiy	0.03	0.00	Mos keladi
Qo‘rg‘oshin	0.3	0.00	Mos keladi
Simob	0.005	0.00	Mos keladi

7-jadval. Tuyatish navi meva po‘sti asosida tayyorlangan ekstrakt tarkibidagi xlororganik pestitsidlar miqdori, mg/kg

Pestitsidlar	Meyoriy hujjat bo‘yicha eng ko‘p miqdor	Aniqlangan miqdor	Ko‘rsatkichlarning meyoriy hujjatlarga Mosligi
Geksaxlorsiklogeksan izomerlari	0.005	Yo‘q	Mos keladi
Dixlorodifeniltri-xloretan va uni metaboliti	0.005	Yo‘q	Mos keladi

Qayin anor meva po‘sti asosida tayyorlangan ekstrakt analizi natijalari ham yuqoridagi bilan bir xil ekanligi aniqlandi. Mazkur natijalar olingan ekstraktlarni malham ko‘rinishida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Anor po‘stlog‘i asosida tayyorlangan “ASTUR” (AntiPsoriaz-20) surtma malhamining klinik tekshiruv natijalari. Anor po‘stlog‘i va parafin asosida tayyorlangan “ASTUR” (AntiPsoriaz-20) surtmasi Andijon shahar Teri kasalliklari dispanseri, Dermatovenerologiya kafedrasida mutaxassislari bilan hamkorlikda klinik sinovdan o‘tkazildi. Klinik tadqiqotlar psoriaz kasalligining turli bosqichlari bilan kasallanib, Andijon shahar Teri kasalliklari dispanserida sintetik dori vositalari bilan davolanayotgan 10 nafar bemorlarga qo‘shimcha ravishda «ASTUR» (AntiPsoriaz-20) tabiiy surtmasi tartib asosida berish bilan amalga oshirildi. Bunda, bemorlarning kasallik darajasi, qon tahlili, biologik faol moddalarga nisbatan ta’sirchanligini o‘rganish asosida bemorlarning sintetik dori vositalari va “ASTUR” (AntiPsoriaz-20) maziga nisbatan nojo‘ya ta’sirchan emasligi aniqlandi. Sintetik dori vositalari bilan davolanayotgan ushbu bemorlarga 10 kun mobaynida “ASTUR” (AntiPsoriaz-20) mazi qo‘shimcha sifatida berildi. Ular bilan bir qatorda boshqa 10 nafar bemorlar esa faqat sintetik dori vositalari yordamida davolandi.

Quyida 2022 yilda Andijon viloyati Teri-tanosil kasalliklari dispanserida psoriaz kasalligi bilan kasallangan va muolaja olgan ayrim bemorlarning klinik tekshiruvlari natijalari haqida ma’lumotlar keltirilgan:


8-jadval. Klinik tadqiqot natijalari

2022-yil klinik tadqiqot natijalari									
№	Malham (surtma)	Bemor- lar soni	Muolaja kunlari						
			3- kun	6- kun	9- kun	12- kun	15- kun	18- kun	20- kun
1	AntiPsoriaz-20	10	60	75	88	100			
2	Salitsil va Prednizalon malhamlari	10	40	54	62	78	82	90	90
2023-yil klinik tadqiqot natijalari									
1	Gidrokortizon (1%)	5	15	50	60	90	90	90	
2	Dermoveyt 0.05	15	30	60	90	100			
3	ASTUR (AntiPsoriaz-20)	5	20	50	70	90	100		

«ASTUR» (AntiPsoriaz-20) mazi surtilgan bemorlarda ijobiy natija kuzatilib, ularning terisidagi psoriaz kasalligi belgilari kamaydi. Faqat sintetik dori vositalari bilangina davolangan kasallarning esa 50% ida shunday ijobiy natija kuzatildi. Bu esa, sintetik dori vositalari bilan davolanayotgan, psoriaz bilan kasallangan bemorlarga «ASTUR» (AntiPsoriaz-20) mazi berilganda, faqat sintetik dori vositalari bilan davolashga nisbatan bir necha barobar samarali va zararsiz ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, psoriaz kasalligi bilan og'rikan bemorlarni ma'lum muddat davomida «ASTUR» (AntiPsoriaz-20) mazi sintetik dorivor vositalar bilan birga qo'llanilganda kasallik belgilari tezroq kamayganligi kuzatildi.

Gall kislotasining metilolmochevina va ularning hosilalari bilan birikmalari. Ureidometilgallat sintezi. O'zbekistonda yetishtirilayotgan anor meva po'stlog'i tarkibidan gall kislotasi ajratib olindi. Mochevinaning formaldegid bilan hosilalari va gall kislotasi o'zaro reaksiya mexanizmi «Gaussian 98» dasturlar paketi yordamida kvant-kimyoviy tadqiq etildi. Reaksiya quyidagi tenglama asosida borishi taxmin qilindi:



Gall kislotasining monometilolmochevina bilan reaksiya borish mexanizmi gall kislotadagi $-\text{COOH}$ hamda $-\text{OH}$ guruhlar monometilolmochevinadagi $-\text{NH}_2$ hamda $-\text{OH}$ larning bog' energiyalari asosida tahlil qilindi. Bunda Kulon elektrostatik ta'sir nazariyasi asosi qilib olindi va quyidagi formula asosida kimyoviy bog' energiyalari hisoblandi:


$$F = kq_1q_2/r^2$$

Bunda, F – elektrostatik kuchning absolyut qiymati, k – konstanta ($1/4\pi\epsilon_0$), q_1

va q_2 ta'sirlashayotgan atomlarning shartli zaryadlari, r – atomlar orasidagi masofa.

Taxminiy mahsulot monometilolmochevinagallat efiri atomlarining shartli zaryadlarni aniqlashda molekulyar optimizatsiya DFT (density functional theory) metodi 3-21G bazisida amalga oshirildi. Energetik optimallashtirilgan molekula va undagi atomlarning shartli raqamlanishi 1-rasmda keltirilgan.






3-rasm. Uroidometilgallatning kvant-kimyoviy usulda (DFT/3-21G) hisoblangan IQ spektri.

9-jadval. Uroidometilgallatning IK spektrlarini taqqoslash.

№	Guruh nomi	Yutilish choʻqqilari		№	Guruh Nomi	Yutilish choʻqqilari	
		Eksperimental	Nazariy			eksperimental	nazariy
1	δ_{NH_2}	kuchli 580	569	11	τ_{CH_2}	kuchli 1260	1280
2	δ_{NH}	oʻrta 765	742	12	$\nu_{C(O)=O}$	kuchli 1570	1570
3	$\delta_{Ar(as)}$	oʻrta 880	890	13	$\nu_{C(NH_2)}$	kuchli 1650	1570
4	$\delta_{Ar(s)}$	kuchli 940	936	14	δ_{NH_2}	kuchsiz 1670	1652
5	τ_{CH_2}	oʻrta 990	1011	15	$\nu_{CH_2(s)}$	Kuchsiz 3280	3281
6	$\nu_{C(O)-O}$	kuchli 1035	1048	16	$\nu_{CH_2(as)}$	kuchsiz 3355	3345
7	τ_{NH_2}	kuchli 1090	1178	17	$\nu_{CH(Ar)}$	kuchsiz 3370	3358
8	ν_{H_2C-O}	kuchli 1110	1122	18	$\nu_{NH_2(s)}$	kuchsiz 3720	3738
9	$\tau_{CH(Ar)}$	kuchli 1130	1152	19	ν_{NH}	kuchsiz 3770	3798
10	δ_{OH}	kuchli 1190	1167	20	$\nu_{NH_2(as)}$	kuchsiz 3830	3818

Olingan natijalar taqqoslanganda gall kislotasi va monometilolmochevina sintezida hosil boʻlgan uroidametilgallatning IQ spektri eksperimental va nazariy natijalar oʻzaro yaqinligini koʻrish mumkin. Mazkur reaksiyada gall kislotasidagi karboksil guruh bilan monometilolmochevina molekulasidagi gidroksil guruhlar hisobiga eterifikatsiya reaksiyasi borganligini koʻrsatadi. Mahsulotning mass-spektrida $149 m/z$ (C_6HO_2CO), $197 m/z$ ($C_6H_2(OH)_3COOCH_2NH$), $258 m/z$ ($C_6H(OH)_2COOCH_2NHCONH_2 \cdot H_2O$), $391 m/z$ ($C_6H(OH)_3COO-C_6H(OH)_2COOCH_2NHCONH_2$) fragmentlarga xos signallar borligi ham bu fikrni qoʻllab-quvvatlaydi.

Gall kislotasining monometilolmochevina bilan hosil qilgan birikmasi. Gall kislotasi bilan monometilolmochevina reaksiyasi quyidagicha boradi:



Reaksiya mahsulotlari aralashmasi kolonkali xromatografiya usulida ajratildi. Monometiloltiomochevinagallat unumi 39 %. $T_s=188$ °C. Erituvchilarda eruvchanligi: aseton > dietilefiri > xloroform > dioksan > geksan > geptan > oktan tartibga mos keladi.

Mahsulot IQ spektridagi defarmatsion tebranish r_{OH} oʻrta 610 cm^{-1} , defarmatsion tebranish δ_{NH} oʻrta $765, 780\text{ cm}^{-1}$, defarmatsion tebranish $\delta_{Ar(as)}$ oʻrta 918 cm^{-1} , defarmatsion tebranish $\delta_{Ar(s)}$ kuchli 925 cm^{-1} , defarmatsion tebranish r_{CH_2} oʻrta 870 cm^{-1} , valent tebranish $\nu_{H_2C-O(CO)}$ juda kuchli 895 cm^{-1} , valent tebranish $\nu_{C(O)-O}$ kuchli 965 cm^{-1} , valent tebranish ν_{H_2C-O} juda kuchli $920, 965\text{ cm}^{-1}$, defarmatsion tebranish $r_{CH(Ar)}$ keng, kuchli $1110, 1230\text{ cm}^{-1}$, defarmatsion tebranish δ_{OH} keng, kuchli $1030, 1165, 1180\text{ cm}^{-1}$, defarmatsion tebranish τ_{CH_2} kuchli $1250, 1335\text{ cm}^{-1}$, defarmatsion tebranish r_{NH} kuchli 1520 cm^{-1} , valent tebranish $\nu_{C(O)=O}$ kuchli 1690 cm^{-1} , valent tebranish $\nu_{C(NH_2)=O}$ kuchli 1710 cm^{-1} , valent tebranish $\nu_{CH_2(s)}$ kuchsiz $3055-3135\text{ cm}^{-1}$, valent tebranish $\nu_{CH_2(as)}$ kuchsiz $3155-3200\text{ cm}^{-1}$, $\nu_{CH(Ar)}$ kuchsiz $3215-3275\text{ cm}^{-1}$, valent tebranish ν_{NH} kuchsiz, keng 3570 cm^{-1} , valent tebranish ν_{OH} keng, kuchsiz $3570-3710\text{ cm}^{-1}$. *Mass-spektr:* $276,0014\text{ m/z}$ (20 %), $371,0024\text{ m/z}$, $463,0016\text{ m/z}$ (50 %).

